



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 03 | pp. 115-123 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARIDA AKTIV-PASSIV MUDDATLARINI MOSLASHTIRISH: LIKVIDLIKNI SAQLASHNING ENG MUHIM YO'LLARI



Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari aktivlari va passivlari muddatlarini moslashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlari, shuningdek, uning bank likvidligini saqlashdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda aktiv-passiv nomuvofiqligining likvidlik xatari, to'lovga qobiliyatlilik va moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy ilmiy qarashlarga asosanib, muddatlarni moslashtirish bank boshqaruvining nafaqat texnik vositasi, balki risklarni nazorat qilish va balans barqarorligini ta'minlashning strategik vositasi ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, "Agrobank" ATB moliyaviy ko'rsatkichlari misolida aktivlar, majburiyatlar, kredit portfeli va kapital dinamikasi tahlil qilinib, kredit portfelining tez o'sishi barqaror va uzoq muddatli passivlar bilan ta'minlanmasa, likvidlikka bosim kuchayishi mumkinligi qayd etilgan. Tadqiqot yakunida muddat koridorlari tizimi, resursga bog'langan kreditlash, passivlar barqarorligini baholash, ikki qavatli likvidlik buferi hamda ALM qarorlarining likvidlikka ta'sirini baholash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aktiv-passiv boshqaruvi, likvidlik, likvidlik riski, muddat nomuvofiqligi, ALM, resurs bazasi, gap-tahlil, kredit portfeli, barqaror passivlar, stress-test.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты согласования сроков активов и пассивов коммерческих банков, а также его роль в поддержании банковской ликвидности. В исследовании анализируется влияние несоответствия сроков активов и пассивов на риск ликвидности, платёжеспособность и финансовую устойчивость. На основе зарубежных и отечественных научных взглядов подчёркивается, что согласование сроков является не только техническим инструментом банковского управления, но и стратегическим средством контроля рисков и обеспечения устойчивости баланса. Кроме того, на примере финансовых показателей АКБ «Агробанк» проанализирована динамика активов, обязательств, кредитного портфеля и капитала, а также отмечено, что если быстрый рост кредитного портфеля не обеспечен стабильными и долгосрочными пассивами, давление на ликвидность может усилиться. В завершение исследования разработаны практические рекомендации по системе сроков коридоров, кредитованию, привязанному к ресурсной базе, оценке устойчивости пассивов, двухуровневому буферу ликвидности, а также оценке решений ALM с точки зрения их влияния на ликвидность.

Ключевые слова: коммерческие банки, управление активами и пассивами, ликвидность, риск ликвидности, несоответствие сроков, ALM, ресурсная база, gap-анализ, кредитный портфель, устойчивые пассивы, стресс-тестирование.

Abstract. *This article discusses the practical and theoretical considerations of matching the maturities of the assets and liabilities of commercial banks, and its role in maintaining the liquidity of the bank. The impact of asset-liability mismatches on liquidity risk, solvency, and financial stability is analyzed in this study. Based on the foreign and domestic academic opinion, it is argued that maturity matching is not only a technical tool of bank management, but also a strategic tool for controlling risks and ensuring the stability of the balance sheet. In addition, from the example of the financial indicators of Agrobank JSCB, the dynamics of assets, liabilities, loan portfolio and capital are analyzed, and it is noted that if the rapid growth of the loan portfolio is not backed by stable and long-term liabilities, the pressure on liquidity may grow. At the end of the study, practical recommendations are developed regarding a maturity corridor system, resource-linked lending, assessment of stability of the liabilities, two-layer liquidity buffer, and evaluation of ALM decisions as regards their liquidity impact.*

Keywords: *commercial banks, asset-liability management, liquidity, liquidity risk, maturity mismatch, ALM, funding base, gap analysis, loan portfolio, stable liabilities, stress testing.*

Kirish

Bugungi kunda bank tizimining barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan tijorat banklarida aktiv va passivlarni samarali boshqarish natijasi hisoblanadi. Xususan, bank balansida aktivlar va majburiyatlar muddatlarining o'zaro nomuvofiqligi likvidlik xatarini yuzaga keltirishi, to'lov intizomini izdan chiqarishi hamda bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois tijorat banklarida aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirish masalasi zamonaviy bank boshqaruvining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur yondashuv banklarga nafaqat qisqa muddatli likvidlik talablarini qondirish, balki uzoq muddatli strategik barqarorlikni ta'minlash, foiz xatarini kamaytirish hamda resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda aktiv va passivlarni boshqarish (Asset-Liability Management - ALM) bank likvidligini saqlash, moliyaviy xatarlarni cheklash va balans tuzilmasini optimallashtirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Jumladan, aktiv va passivlar muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblik banklarda likvid mablag'lar tanqisligini keltirib chiqarishi, bu esa o'z navbatida favqulodda mablag'larni jalb etish zaruratini tug'dirib, bank xarajatlarining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli tijorat banklari faoliyatida muddatlar tafovutini tahlil qilish, boshqarish va kamaytirish masalalari muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlash hamda 2026-yil oxiriga qadar bank aktivlari umumiy hajmida xususiy sektor ulushini 60 foizga yetkazish vazifasi belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, banklar faoliyatining bozor tamoyillari asosida tashkil etilishiga, ularning resurs bazasi sifatiga hamda aktiv va passivlarni boshqarish samaradorligiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi tijorat banklari oldiga moliyaviy resurslarni shakllantirish va

joylashtirish, shuningdek, ularning muddatlarini o'zaro muvofiqlashtirish borasida yangi talablarni qo'ymoqda.

Bozor tamoyillari tobora chuqurlashib borayotgan sharoitda banklar raqobatbardosh depozit siyosati, barqaror resurs bazasi va puxta likvidlik boshqaruvi asosida faoliyat yuritishi zarur. Chunki uzoq muddatli aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlar hisobidan moliyalashtirilishi bank likvidligining izdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, aktiv va passivlar muddatlarini o'zaro moslashtirish tijorat banklarining nafaqat joriy likvidligini ta'minlash, balki ularning investitsion faolligini, kreditlash salohiyatini va umuman moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur ish tijorat banklarida aktiv va passivlar muddatlarini o'zaro moslashtirishning nazariy asoslari, ularning likvidlikka ta'siri hamda bank amaliyotida qo'llaniladigan asosiy mexanizmlarni tahlil qilishga asoslanadi. Shuningdek, unda aktiv va passivlar muddatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytirish orqali banklar likvidligini ta'minlashning samarali yo'llari yoritib berilgan.

Adabiyotlar sharhi

Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirish masalasi likvidlikni oddiy texnik jihatdan ta'minlash usuli bo'libgina qolmay, balki bank barqarorligi va xatarlarni boshqarishni anglashdagi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda muddatlar nomuvofiqligi asosan bank likvidlik xatarining ichki manbai sifatida talqin etiladi. Ya'ni, uzoq muddatli aktivlar qisqa muddatli majburiyatlar hisobidan moliyalashtirilganda, banklar bozordagi salbiy tebranishlarga nisbatan ko'proq ta'sirchan bo'lib qoladi. Mahalliy tadqiqotlarda esa ushbu masala ko'proq O'zbekiston tijorat banklarining resurs bazasi, uzoq muddatli kreditlash amaliyoti, likvidlik ko'rsatkichlari hamda aktiv-passiv boshqaruvi sifati bilan bog'liq holda torroq doirada o'rganilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirish nafaqat likvidlikni saqlashning zarur sharti, balki bankning uzoq muddatli moliyaviy muvozanatini ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik omil hamdir.

Xorijiy olimlar orasida Galletta va Mazzù (2019) likvidlik xatarining omillarini tahlil qilib, bank biznes modeli bilan muddatlar nomuvofiqligi o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadilar. Ularning fikricha, resurs bazasining sifati, jalb qilingan mablag'larning barqarorligi hamda aktivlarning muddat tuzilmasi birgalikda likvidlik holatini belgilaydi. Shu sababli aktiv va passivlar muddatlarini moslashtirishni alohida operatsion ahamiyatga ega masala sifatida emas, balki bank biznes modelining asosiy tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqish lozim.

Marozva va Makina (2020) banklardagi aktiv va passivlar nomutasosibligida "yashirin" likvidlik xatarini ko'radilar. Ularning fikricha, muddatlar tafovuti qanchalik katta bo'lsa, bank tashqi moliyalashtirish manbalariga shunchalik ko'proq tayanadi, bu esa bozor keskinlashuvi davrida likvidlik bosimini yanada kuchaytiradi. Ushbu ilmiy yondashuvning asosiy mazmuni shundan iboratki, likvidlik muammolari ko'pincha faqat inqiroz jarayonida emas, balki balans tuzilmasidagi avvaldan mavjud nomutasosibliklar natijasida yuzaga keladi.

Arif Eser Guzel (2021) bank xatarlarini zamonaviy nuqtayi nazardan izohlar ekan, likvidlik xatarini foiz xatari va balans xatari bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqadi. U aktiv va passivlar muddatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni bankning likvid resurslarga bo'lgan ehtiyojini oshiruvchi omil sifatida baholaydi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqadiki, ALM tizimi bankning nafaqat rentabelligini, balki ayni vaqtda uning to'lovga qobiliyatligini ham boshqarishi lozim.

Soumik Bhusan, Ajit Dayanandan va Naresh G. (2025) "Asset-Liquidity Maturity Mismatch and Bank Fragility" nomli tadqiqotida muddatlar bo'yicha katta nomuvofiqlikka ega banklar tashqi zarbalarga nisbatan yanada mo'rt bo'lishini ko'rsatadi. Ushbu natija mazkur muammoning ahamiyati faqat likvidlik darajasi bilan cheklanmasdan, balki tizimli barqarorlik bilan ham bevosita bog'liq ekanligini anglatadi.

Shuningdek, mahalliy tadqiqotlarda tadqiqotimiz yo'nalishida g'oyalar ilgari surilgan bo'lib, ular O'zbekiston bank tizimining amaliy xususiyatlari bilan chambarchas bog'langan. Qodirov A.B. (2024) O'zbekiston tijorat banklarida likvidlik xatarini boshqarishning mavjud modellarini tahlil qilar ekan, bozorlardagi noaniqlik sharoitida banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlash uchun likvidlikni oldindan prognoz qilish va balans tuzilmasini mos ravishda o'zgartirish muhimligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirishni likvidlik xatarini boshqarishning amaliy asoslaridan biri sifatida e'tirof etadi.

Safarov S. (2024) bank aktivlari va passivlarini samarali boshqarish masalasini ko'rib chiqar ekan, bank rentabelligi va likvidligi o'rtasidagi muvozanatga alohida urg'u beradi. Uning fikricha, aktiv-passiv boshqaruvi sifati oshgani sari bankning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi. Mazkur mavzu nuqtayi nazaridan bunday qarash shuni anglatadiki, muddatlarni moslashtirish likvidlik va rentabellik o'rtasidagi eng maqbul muvozanatni topish shaklidir.

Rakhmanov I. (2024) tijorat banklari resurs bazasining mustahkamligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni tahlil qilar ekan, resurs bazasining sifat xususiyatlari, uning qayta tiklanish darajasi hamda tarkibiy barqarorligi banklar uchun muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ushbu xulosa aktiv va passivlar muddatlarini o'zaro moslashtirish masalasini resurs bazasi barqarorligi bilan bevosita bog'laydi.

Mardonova Sh. (2024) tijorat banklari aktivlarini boshqarishni takomillashtirish masalasini ko'rib chiqar ekan, aktivlar tarkibini shakllantirishda nafaqat rentabellikni, balki ularning muddati va likvidlikka ta'sirini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa aktiv siyosati passiv siyosatidan alohida holda olib borilganda samarali bo'la olmasligini ko'rsatadi.

Bakhriddinov Sh. (2025) tijorat banklari likvidligini ta'minlashda aktiv va passivlarning ahamiyatini tahlil qilish jarayonida balansning har ikki tomonini birgalikda boshqarish likvidlikni saqlashda markaziy o'rin egallashini qayd etadi. Xususan, u aktiv-passiv boshqaruvini zamonaviy boshqaruv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi qarashlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda muddatlar nomuvofiqligi masalasiga asosan uning tizimli oqibatlari, ya'ni likvidlik xatari, moliyaviy mo'rtlik va bozor zarbalariga sezuvchanlik nuqtayi nazaridan yondashiladi. Mahalliy tadqiqotlarda esa ushbu muammo ko'proq O'zbekiston tijorat banklarining

amaliy faoliyati bilan, ayniqsa resurs bazasi sifati, uzoq muddatli kreditlashning yuqori ulushi, bank balansining likvidligi hamda aktiv-passiv boshqaruvi samaradorligi bilan bog'liq holda talqin etiladi. Biroq har ikki yo'nalishdagi ilmiy qarashlar bir nuqtada uyg'unlashadi: bank likvidligini ta'minlash uchun aktiv va passivlar muddatlari o'rtasidagi tafovut boshqarilishi mumkin bo'lgan darajadan oshmasligi lozim.

Fikrimizcha, tijorat banklarida aktiv va passivlar muddatlarini faqat gap-tahlil yoki qisqa muddatli likvidlik ko'rsatkichlari orqali izohlash yetarli emas. Ushbu jarayon resurslarni jalb qilish siyosati, kredit portfeli strategiyasi, foiz siyosati, stress-test tizimi hamda bank balansining umumiy tuzilmasini o'zida mujassam etgan kompleks boshqaruv mexanizmi sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Aktiv va passivlar muddatlarining o'zaro mosligi bank likvidligiga kamida uch jihatdan ta'sir ko'rsatadi:

Birinchidan, bankning joriy va kelgusidagi to'lov majburiyatlarini uzluksiz bajarish imkoniyatini kuchaytiradi;

Ikkinchidan, bankning qimmat va favqulodda tashqi moliyalashtirish manbalariga murojaat qilish zaruratini kamaytiradi;

Uchinchidan, kreditlash hajmi bilan resurs bazasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqot metodologiyasi tijorat banklarida aktiv va passivlar muddatlarini moslashtirish masalasini nazariy, qiyosiy va amaliy-statistik jihatdan kompleks o'rganish imkonini berdi hamda likvidlikni saqlashga doir takliflarni ishlab chiqish uchun zarur analitik asosni yaratdi.


Tahlil va natijalar

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirishni takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari ulushini oshirish;
- kredit portfeli muddat tuzilmasini majburiyatlar bilan uyg'unlashtirish;
- likvidlik tafovutlarini muntazam kuzatib borish;
- stress-test va ssenariy tahlilini kuchaytirish; hamda ALM jarayoniga raqamli tahliliy vositalarni faol joriy etish.

Bu, ayniqsa, uzoq muddatli kreditlar ulushi ortib borayotgan banklar uchun nihoyatda muhimdir, chunki qisqa muddatli depozitlar va majburiyatlarga ortiqcha tayanish likvidlik xatarining asosiy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shunday qilib, aktiv va passivlar muddatlarini moslashtirish nafaqat bank likvidligining natijasi, balki uning asosiy belgilovchi omillaridan biridir. Boshqacha aytganda, likvid bank ko'pincha to'g'ri shakllantirilgan balans natijasidir, to'g'ri shakllantirilgan balans esa aktiv va passivlarning faqat hajm jihatidan mutanosibligi bilan emas, balki ularning muddat jihatidan ham mos kelishi bilan ta'minlanadi. Shu sababli bank likvidligini saqlashning eng muhim shartlaridan biri aktiv va passivlar muddatlarini strategik, uzluksiz va ma'lumotlarga asoslangan tarzda boshqarishdan iboratdir.



1-rasm. Agrobank ATBning moliyaviy ko'rsatkichlari va kapital yetarliligi oshib borish dinamikasi¹

1-rasmda bank jami aktivlarining 2022-yil 1-yanvardagi qariyb 39,5 trln so'mdan 2026-yil 1-yanvar holatiga 104 trln. so'mga yetgani, ya'ni qariyb 163 foizga oshgani ko'rsatilgan. Shu davrda jami majburiyatlar 30 trln. so'mdan 90 trln. so'mga yetib, qariyb 200 foizga ko'paygan, kredit portfeli esa 31,5 trln. so'mdan 80,5 trln. so'mga oshib, taxminan 156 foizlik o'sishni namoyon etgan. Bank kapitali ham oshgan bo'lsa-da, uning o'sish sur'ati nisbatan past bo'lib, qariyb 50 foizni tashkil etgan. Rasmda aks etgan ushbu nisbatlar bank faoliyatining kengayishi asosan majburiyatlar va kredit portfeli hisobiga yuz berganini, ya'ni aktivlar o'sishi majburiyatlar bazasining jadal kengayishi bilan ta'minlanganini ko'rsatadi.

Agar tijorat bankida aktiv va passivlar muddatlarini o'zaro moslashtirish yetarli darajada ta'minlanmasa, kredit portfelining tez sur'atlarda o'sishi likvidlikka salbiy bosim o'tkazishi mumkin. Buning sababi shundaki, kreditlar odatda nisbatan uzoqroq muddatlarga ajratiladi, majburiyatlarning sezilarli qismi esa qisqa yoki o'rta muddatli resurslardan tashkil topadi. Tahlil natijalari majburiyatlarning aktivlarga nisbatan ulushi ortib borayotganini, kapital ulushi esa sekinroq sur'atlarda o'sayotganini ko'rsatadi. Bu esa bankning likvidlik buferi ko'proq tashqi jalb qilingan mablag'larga bog'liq bo'lib borayotganini anglatadi. Qisqa muddatda bu holat rentabellikni oshirish va kreditlash hajmini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin, biroq majburiyatlar muddat tuzilmasi kreditlar muddatiga mos kelmasa, bankning likvidlik tafovuti, ya'ni muddatlar tafovuti yanada kengayadi.

Ayniqsa, rasmda kreditlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotgani bank aktivlarining katta qismi likvidligi nisbatan past, ammo daromadliligi yuqori bo'lgan instrumentlarda jamlanganini anglatadi. Bunday yondashuv odatiy bozor sharoitida yuqori foyda olish imkonini beradi. Biroq depozitlar oqimi sekinlashganda yoki bozor sharoitida moliyalashtirish qiymati oshganda, bu bankning joriy to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mazkur tahlilni faqat o'sish belgisi sifatida emas, balki likvidlik boshqaruvi sifatini sinovdan o'tkazuvchi muhim ko'rsatkich sifatida ham baholash lozim.

¹ www.agrobank.uz Agrobank aksiyadorlik tijorat banki Rasmiy sayti ma'lumotlari.

Fikrimizcha, bankda likvidlikni saqlashning eng muhim vositalaridan biri kredit portfelining jadal kengayishini barqaror va uzoq muddatli majburiyatlar bilan ta'minlashdan iborat. Shu maqsadda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, uzoq muddatli depozitlar ulushini oshirish lozim;

Ikkinchidan, yirik hajmdagi va qisqa muddatli mablag'larga haddan tashqari qaramlikni kamaytirish zarur;

Uchinchidan, aktiv va passivlar muddatlari o'rtasidagi tafovutni muntazam ravishda gap-tahlil asosida baholab borish kerak.

Shu bilan birga, bank tomonidan uch yildan ortiq muddatga jalb qilinadigan depozitlarni ko'paytirish maqsadida paketli xizmatlar, foizsiz rag'batlantirish mexanizmlari hamda mijozlar sodiqligi dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu majburiyatlar bazasining sifatini oshiradi va uzoq muddatli kreditlarni moliyalashtirish uchun nisbatan barqaror manba yaratadi.

Bundan tashqari, tahlil natijalari asosida chiqariladigan asosiy xulosa shundan iboratki, aktivlar, kreditlar va majburiyatlar hajmi bir vaqtning o'zida oshib borayotgan bo'lsa-da, likvidlikning haqiqiy barqarorligi ularning miqdorida emas, balki muddatlar bo'yicha o'zaro mosligida namoyon bo'ladi. Demak, tijorat banklarida aktiv va passivlar muddatlarini o'zaro moslashtirish likvidlikni saqlashning eng muhim yo'llaridan biridir. Aynan shu omil kreditlashning xavfsiz sur'atini, resurs bazasining mustahkamligini hamda bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotimizda aktiv va passivlar muddatlarini moslashtirish orqali likvidlikni saqlashga doir quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1) Bank balansida "muddat koridori" tizimini joriy etish. Har bir bank o'z aktiv va passivlarini 7 kun, 30 kun, 90 kun, 180 kun, 1 yil va 1 yildan ortiq muddatli guruhlariga ajratishi hamda har bir guruh bo'yicha maqbul tafovut limitini belgilashi zarur. Masalan, agar uzoq muddatli kreditlar qisqa muddatli majburiyatlar hisobidan ortiqcha moliyalashtirilayotgan bo'lsa, tizim avtomatik ravishda ogohlantirish signalini berishi kerak. Bu esa likvidlik muammolarini ular yuzaga kelgandan keyin emas, balki oldindan nazorat qilish imkonini beradi.

2) Kredit ajratishda moliyalashtirish manbasini oldindan biriktirish tamoyilini joriy etish. Yirik yoki uzoq muddatli kredit tasdiqlanishidan avval unga mos majburiyat manbasi aniqlangan bo'lishi kerak, aks holda bunday kredit ma'qullanmasligi lozim. Boshqacha aytganda, 3-5 yil muddatli kreditlar asosan uzoq muddatli depozitlar, sinditsiyalashgan qarzlar, obligatsiyalar yoki kapitalga yaqin moliyalashtirish manbalari hisobidan ta'minlanishi kerak. Bunday yondashuv kreditlashni sekinlashtirmaydi, aksincha, uni yanada sog'lom va barqaror qiladi.

3) Majburiyatlar bazasini hajm bo'yicha emas, balki uning "barqarorlik darajasi" asosida boshqarish. Banklar depozitlarni faqat yirik va kichik guruhlariga emas, balki ularning bankdagi saqlanish muddati, yangilanish ehtimoli va qaytarib olinishi tezligi bo'yicha ham tasniflashi zarur. Shu asosda turli depozit turlariga ichki "barqarorlik koeffitsiyenti" biriktirilsa, bank qaysi resurslar kreditlash uchun haqiqatda mos ekanini aniqroq belgilay oladi. Bu, ayniqsa, talab qilib olinadigan depozitlar ulushi yuqori bo'lgan sharoitlarda nihoyatda muhimdir.

4) Likvidlikni boshqarishda “ikki qatlamli bufer” modelidan foydalanish. Bank likvidlik zaxirasini bitta emas, balki ikki himoya qatlamidan iborat shaklda tashkil qilishi kerak. Birinchi qatlam kundalik to'lovlarni amalga oshirish uchun tezda naqdlashtirilishi mumkin bo'lgan yuqori likvid aktivlardan iborat bo'lishi lozim. Ikkinchi qatlam esa bir oydan uch oygacha bo'lgan davrdagi likvidlik bosimini qoplashga xizmat qiladigan o'rta muddatli rezervlardan tashkil topishi kerak. Mazkur model bankka qisqa muddatli zarbalar yoki o'rta muddatli bosim sharoitida ham qimmat favqulodda moliyalashtirish manbalariga qaram bo'lib qolmaslik imkonini beradi.

5) ALM qarorlarini faqat rentabellik asosida emas, balki ularning “likvidlikka ta'siri” asosida ham baholash.

Ko'plab banklarda qaror qabul qilish jarayonida rentabellik omili ustunlik qilmoqda. Biroq amaliyotda har bir yangi kredit mahsuloti, depozit kampaniyasi yoki investitsion qaror bo'yicha quyidagi majburiy savol qo'yilishi kerak. Ushbu qaror aktiv va passivlar o'rtasidagi muddat tafovutini qisqartiradimi yoki kengaytiradimi? Agar mahsulot foydali bo'lsa, ammo likvidlik tafovutining kengayishiga olib kelsa, u holda mazkur mahsulot qayta ishlab chiqilishi zarur. Bu yondashuv bankni “foydali, ammo mo'rt” modeldan “foydali va barqaror” modelga o'tkazishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, likvidlikni saqlashning eng muhim yo'li har doim ham ko'proq mablag' jalb qilish emas, balki qaysi muddatdagi moliyalashtirish manbasi qaysi muddatdagi aktivlarni moliyalashtirishga yo'naltirilayotganini aniq va samarali boshqarishdan iboratdir. Shu sababli tijorat banklarida aktiv va passivlar muddatlarini to'g'ri muvofiqlashtirishning eng maqbul amaliy yo'li muddat koridorlari tizimi, resurs manbasiga bog'langan kreditlash, barqarorlikka asoslangan majburiyatlar boshqaruvi, ikki qatlamli likvidlik buferi tizimi hamda ALM qarorlarini ularning likvidlikka ta'siri asosida baholash mexanizmini birgalikda qo'llashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida aktivlar va passivlar muddatlarini moslashtirish likvidlikni saqlashning eng muhim shartlaridan biridir. Bank faoliyatining mohiyati qisqa muddatli resurslarni jalb qilish va ularni nisbatan uzoq muddatli aktivlarga joylashtirishdan iborat bo'lgani sababli, muddatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik likvidlik xatarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shu bois, aktiv-passivlarni boshqarish tizimi bankning nafaqat joriy to'lov majburiyatlarini bajarish qobiliyatini, balki foiz xatarini, moliyalashtirish barqarorligini va umuman bankning mustahkamligini ham belgilaydi.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklarida aktivlar va passivlar muddatlarini moslashtirish oddiy operatsion vazifa sifatida emas, balki strategik boshqaruv yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. Chunki bank likvidligining haqiqiy barqarorligini bankda qancha mablag' mavjudligi emas, balki qaysi muddatdagi resurs qaysi muddatdagi aktivni moliyalashtirayotgani belgilaydi. Shu sababli, muddatlar bo'yicha muvozanatni ta'minlash, barqaror passivlar ulushini oshirish va banklarda ALM qarorlarini tizimli ravishda takomillashtirish likvidlikni saqlashning eng samarali yo'li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Mirziyoyev, S. M. (2022, January 28). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida (PF-60-son Farmon). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. <https://lex.uz/docs/5841063>
- 2) Marozva, G., & Makina, D. (2020). Liquidity risk and asset liability mismatches: Evidence from South Africa. *Studies in Economics and Econometrics*, 44(2), 39–63. https://www.researchgate.net/profile/Godfrey-Marozva-2/publication/346800944_Liquidity_Risk_and_Asset_Liability_Mismatches_Evidence_From_South_Africa/links/6061a275458515e8347c330c/Liquidity-Risk-and-Asset-Liability-Mismatches-Evidence-From-South-Africa.pdf
- 3) Arif Eser Guzel (2021). Risk, asset and liability management in banking: Conceptual and contemporary approach. In A. H. Dincer & U. Hacıoglu (Eds.), *Financial ecosystem and strategy in the digital era* (pp. 131–145). Springer. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-72624-9_7
- 4) Soumik Bhusan, Ajit Dayanandan va Naresh G. (2025). Asset–liability maturity mismatches and banking fragility risk. *International Journal of Accounting & Information Management*, 33(4), 693–714. <https://www.emerald.com/ijaim/article/33/4/693/1249832>
- 5) Qodirov, A. B. (2024). O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida likvidlik riskini boshqarishning mavjud modellarini tahlil qilish. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*. <https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/download/330/349>
- 6) Safarov, S. (2024). Bank aktivlari va passivlarini boshqarishni takomillashtirish. *Green Economy and Development*. <https://www.neliti.com/publications/667435/bank-aktivlari-va-passivlarini-boshqarishni-takomillashtirish>
- 7) Raxmanov, I. (2024). Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi. *Green Economy and Development*. <https://www.neliti.com/publications/667204/tijorat-banklari-resurs-bazasi-mustahkamligini-baholovchi-korsatkichlar-tizimi>
- 8) Mardonova Sh. (2024). Tijorat banklari aktivlarini boshqarishni takomillashtirish. *Green Economy and Development*. <https://www.neliti.com/publications/665615/tijorat-banklari-aktivlarini-boshqarishni-takomillashtirish>
- 9) Baxriddinov, S. (2025). Tijorat banklari likvidligini ta'minlashda aktiv va passivlarning ahamiyati. *Finance, Money and Credit*. <https://mpkjournal.com/index.php/MPK/article/download/129/136>
- 10) www.agrobank.uz Agrobank ATB rasmiy sayti ma'lumotlari

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

